

INTERFAOL TA'LIM MUHITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KOMMUNIKATIV NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi

Turan Xalqaro Universiteti o'qituvchisi

E-mail: khabibullayeva0811@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot o'tishning barcha bosqichlarida, o'qitishning interfaol usullaridan foydalanib, bolalarning kommunikativ nutqini yanada rivojlantirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida interfaol metodlarning ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *konsepsiya, interfaol, ta'lim, kommunikatsiya, nutq, muloqot, metod, innovatsiya, tizim, maktabgacha ta'lim.*

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta'minlovchi muhim manba bo'lgan, sifatli maktabgacha ta'limdan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" qadul qilindi.

Ushbu Konsepsiyaga asosan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari:

- maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;
- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta'lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish va boshqalar deb belgilandi.[1]

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yangi ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ma'naviy yetuk yosh avlodni tarbiyalashning samarali tashkiliy va pedagogik shakllarini va usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ushbu usullardan biri interfaol ta'lim hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interfaol pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, maktabgacha yoshdagi bolalarning integrativ fazilatlarini rivojlantirishga, maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standartida belgilangan vazifalarga muvofiq atrofdagi odamlar bilan o'zaro muloqot va nutq malakalari, usullari va vositalarini o'zlashtirishga qaratilgan.

“Interfaol ta'lim nima?” degan savolga javob berib aytishimiz mumkinki, “interaktiv” biror narsa (masalan, kompyuter) yoki kimdir (odam) bilan muloqot qilish yoki suhbat, dialog rejimida bo'lish qobiliyatini bildiradi. Yani, interfaol ta'lim - bu, birinchi navbatda, o'zaro muloqot amalga oshiriladigan dialogli ta'lim bo'lib, kommunikativ texnologiyalarning variantlaridan biri, bu juda aniq va bashorat qilinadigan maqsadlarga ega bo'lgan bilish faoliyatni tashkil etishning maxsus shaklidir. Interfaol ta'limning mohiyati o'quv jarayonini shunday tashkil etishdan iboratki, unda deyarli barcha bolalar bilish jarayonida ishtirok etadilar, ular o'zlari bilgan va o'ylagan narsalarni tushunish va mulohaza yuritish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot o'tishning asosiy shartlaridan biri uning barcha bosqichlarida o'qitishning interfaol usullaridan foydalanib, bolalarning aqliy va kommunikativ nutqini yanada rivojlantirishdir.

“Interfaol” atamasi lotincha “inter akt” so'z birikmasidan olingan bo'lib, “inter” – o'zaro, birgalikda va “akt” – faoliyat ma'nolarini anglatadi.[2] Interfaol metodlar ta'lim mazmuni pedagog rahbarligida bolalarning bir-birlari bilan birgalikdagi faoliyati natijasida o'zlashtirilishini ko'zda tutadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interfaol metodlar bolalarning faolligi, erkin fikrlashi, mustaqil izlanishi, o'zlashtiriladigan ma'lumotlarga ijodiy yondashishiga tayanadi. Interfaol metodlardan foydalanib bilim olish bolalar uchun qiziqarli faoliyatga aylanadi. Interfaol usullar tarbiyalanuvchilarni o'qitishga emas, balki bilimlarni ularning o'zlari tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlashga qaratiladi. Bu usulda bolalar materialni buyurilganidek emas, o'zlari xohlagandek o'zlashtiradilar. Interaktiv metodlarda bolalar yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga urinishadilar va ular, albatta, kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlaydilar. Topshiriqlarning kichik guruhdagi barcha bolalarga berilishi ularda jamoa tuyg'usini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, interfaollik bolada javobgarlik hissini, o'z-o'ziga tanqidiy munosabatni shakllantiradi, muammolarni hal qilishda ijodiy yondashishni rivojlantirib, o'zining kuchli tomonlarini to'g'ri va holisona baholashga, bilimlaridagi ishlovga moyil jihatlarini ko'ra bilishga o'rgatadi. Interfaol darsning asosiy tarkibiy qismi dialog bo'lib. Interfaol ta'lim jarayonida bolalar faol muloqotda bo'ladilar, ba'zan bahslashadilar, suhbatdoshlari bilan o'zaro tortishib, o'z fikrini isbotlashga harakat qiladilar.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”.
2. Словарь иностранных слов. –М.: «Русский язык», 1979. С-23; С-198

